– Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlat rahbari yig'ilish avvalida. – Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi.

– Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak, – dedi Prezident.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va

jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. "Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak<sup>1</sup>", dedi Shavkat Mirziyoyev.

### Asosiy qism

Hozirgi vaqtda "Innovatsiya tushunchasi" juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib -"innovatsion" yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy- madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Metod – inglizcha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Ta'lim metodini(usulini) - ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin. Ta'lim metodi ta'limjarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.

Ta'lim modelini, esa bir yoki bir nechta ta'lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o'quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo'naltirish yo'llarini anglatadi<sup>2</sup>.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur" deb nomlangan nutqi 2019-yil 23-avgustdagi

<sup>2</sup> Abdulkarimov H., O.Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. - T.: o'quv-metodik qo'llanma.2012

<sup>3</sup> Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: "Fan", 2006.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o'yinlardan foydalanish.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda evristik va muammoli ta'limdan tashqari bilishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan ta'lim metodlaridan va o'yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Boshlang'ich ta'limda ish bop, rolli, syujetli o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo'llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o'z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo'yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o'yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo'ldi. ta'lim jarayonida dars shakllarining o'yin usullari sifatida o'qitishning ma'lum bir paytida o'tkaziladi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi kattalarning hatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ishbop o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo'ljallangan ishbop o'yinlar takrorlash, mustahkamlash, o'tilganlarning qay darajada o'rganilganligini (diktantlar, musobaqalar, krossvordlar, sirtqi sayohatlar rolli o'yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o'tkaziladi<sup>4</sup>.

Ishbop o'yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o'yinlar faqat bilishga oid bo'lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta'sir etishi bilan ham xarakterlidir. Masalan, boshlang'ich ta'limda "Nima uchun?", «T-chizma», «FSMU», «Tarmoq (Klaster)», "Ikki qismlik kundalik" kabi innovatsion metodlardan foydalanganda o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

---

<sup>4</sup> Shayakubov Sh.K., Ayupov R.X. Interfaol ta'lim usullari. – T.: TMI, 2010. – 128 bet.

- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;
- sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

- interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
- interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
- mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;
- zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;
- interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

- mavzuni sayoz bilishi;
- nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;
- o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;
- kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;
- ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;
- kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;
- tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;
- o'quvchiga xayrixohlik, samimiylik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;
- mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

O'quvchilarga tegishli omillar:

- davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;
- zarur tayyorgarliksiz kelishi;
- ilmiy atamalarni bilmasligi;
- diqqatni jamlay olmasligi;
- eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;

- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

- ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;
- mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;
- vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'yimaslik;
- vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;<sup>5</sup>

---

<sup>5</sup> Mavlonova.R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - T.: "Fan va texnologiya", 2010.



Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

### **Xulosa :**

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerak ekanligini belgilab beradi. Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi, o'quv axborotlarining uzatilishi, qabul qilinishi, anglab olinishi, yodda saqlanishi, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilar tanqidiy fikrlashiga katta yordam beradi.

Bugungi o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg'ulot turlaridan voz kechib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi kerak. O'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil – tanqidiy fikrlash sanaladi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashi va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning kasbiy faoliyatini ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi maqsadga muvofiq. Interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur" deb nomlangan nutqi 2019-yil 23-avgustdagi .
2. Abdukarimov H., O. Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. - T.: o'quv-metodik qo'llanma. 2012
3. Tolipov O' .Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: "Fan", 2006.
4. Shayakubov Sh.K., Ayupov R.X. Interfaol ta'lim usullari. – T.: TMI, 2010. – 128 bet.
5. Mavlonova.R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - T.: " Fan va texnologiya", 2010.

## EVFEMIZMLARNING LINGVISTIK TABIATI

*Turotova Oydin O'ktamovna**Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilshunoslikdagi “evfemizm” tushunchasining ahamiyati, uning kelib chiqish tarixi, va bu etnolingvistik atamaekanligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tili leksikasida mazkur tushunchalarning tutgan o'zni va ifodalanishi va farqlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** evfemizm, tabulangan so'z, linguakulturologiya, semantik kategoriya, stilistik vosita.

Barchamizga ma'lumki, inson tili benihoya murakkab bo'lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha o'rganish o'ta murakkabdir. Hozirgi zamon yetakchi tilshunoslik ilmiy markazlarida “evfemizm” tushunchasi nihoyatda keng qo'llaniladi, semantik kategoriya sifatida muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etadi, ifodalangan fikr mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzini oshiradi. Dastlab, evfemizm tushunchasining ma'nosini anglab olish maqsadga muvofiqdir. Evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. U nafaqat til hodisasi, balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi. Ushbu atamaning kelib chiqishi va ishlatilishi turli tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan ba'zi manbalarda, “evfemizm” atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birlikning o'rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy “Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so'zlar o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlar” deya ta'rif beradi. “Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovari”da esa “evfemizm – bu so'zlovchi nazarida qo'pol, noqulay bo'lgan so'z va ifodalar o'rnida qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalar” deyiladi. A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug'ati”da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa- hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Masalan: ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash. Evfemik ma'no yuklangan ifodalar antik davrdan boshlab olimlarda qiziqish uyg'otgan. Leksikograf O.S. Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik lug'atda esa evfemizmga „so'zlovchiga beadab, qo'pol, nazokatsiz ko'ringan, o'z sinonimi o'rnida qo'llanila oluvchi hissiy bo'yoqsiz so'z va ibora“ degan izoh keltirilgan. Yana bir tilshunos, D.N.Shmelev ham shu mazmunga hamohang „evfemizm – so'zlovchiga ma'lum sharoitda noma'qul ko'ringan, nihoyatda

o'tkir, aytilishi odobdan sanalmagan, ayni bir ma'noni ifodalashga xizmat qiladigan, nomunosib so'zdan saqlanish maqsadida yumshatilgan ifoda“ deb izohlaydi.

Demak, evfemizm salbiy voqelikni aytmasdan, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qiladi. Tilshunoslikda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan: xotinga nisbatan onasi, oyisi, ayasi, erga nisbatan otasi, dadasi, adasi kabi murojaat shakllarini qo'llash mumkin: To'g'ri, dadasi, men aytaman. [Hoy onasi](#), suyunchini cho'z. Mazkur xitob shakllari ibtidoiy davrlardan qolgan tabu qoldig'i bo'lib, u oilada er-xotindan ko'ra ko'proq bolalarning ota-ona juftligini, sherikligini, ya'ni bolalarning qadrini, ahamiyatini namoyon qiladi.

Evfemizmni badiiy adabiyotlar orqali o'rgansak, stilistik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Badiiy asarlarning tarjimasida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Tilshunos olimalar, D.H. Karimovaning ilmiy tadqiqotlarida, M.M. Mahmudovaning tarjimaga oid ilmiy maqolalarida evfemizmning namunalarini uchratish mumkin. Evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo'llash so'zlovchidan katta san'atni talab qiladi. Masalan: badiiy asarlarda o'lmoq fe'li o'rnida ham bir nechta yumshoq sinonimlar qo'llanadi: Bugun butun qishloq eng aziz insonini so'ngi yo'lga kuzatdi.

Darhaqiqat, evfemizm inson nutqida eng muhim birlik hisoblanadi. Chunki evfemik hodisalar o'zida til va madaniyat mushtarakligini aks etadi. Odamning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Shubhasiz, muloqot madaniyati darajasini, nutqiy madaniyat saviyasini ko'rsatuvchi muhim vositalardan biri evfemistik ifodalardir. Evfemizmlar haqida fikr yuritar ekanmiz, evfemizmning lingvokulturologik fenomen ekanligini ta'kidlashimiz kerak. Ya'ni evfemizmlarni tahlil qilganimizda, ayniqsa, ingliz va o'zbek tilshunosligida evfemizmlarning o'rni, ularning mohiyatini ko'rib chiqqanimizda, bu ikki tilda evfemizmlar madaniyat jihatdan tubdan farq qilishini guvohi bo'ldik. Bu ayniqsa, milliy mentalitet, madaniy o'ziga xoslik bilan chambarchas bog'liq. Masalan: die (o'lmoq) fe'li o'rniga pass away, pass on, pass fe'llari ishlatiladi.

O'zbek xonadonlarida kelin homilador bo'lganligi haqidagi xabarni ham to'g'ridan-to'g'ri aytilish uyat hisoblanganligi uchun “homilador” so'zi o'rniga “bosh qorong'u”, “og'ir oyoq”, “ikki qat”, “ikki jon” kabilar qo'llaniladi. Ingliz tilida ham bunday holatni kuzatishimiz mumkin: She is pregnant o'rniga she is expecting.

Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, evfemizm - qo'pol yoki dag'al so'z va iboralarni nisbatan yumshoq ifoda etadi. Boshqacha aytganda, aytilish uyat, eshitilishi qo'pol va noxush deb hisoblangan, insonda yomon his - tuygular uyg'otadigan voqelikni yumshoq, muloyim, yoqimli, erkalovchi, beozor, chiroyli ma'no - mazmun ifodalovchi so'z va iboralar almashtirib aytilishidir.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Махмудова М.М. “Preservation of originality in the translation of Goethe’s works”, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. – Б. 152-159
2. О.С.Ахмановой, Лингвистический энциклопедический словарь. -2-е изд.,стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
3. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фқитувчи, 1985. – Б. 109.
4. Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Узбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. - № 6. – Б. 22.
5. Шмелёв Д. Н. Эвфемизмы // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф.П. Филина, - М.: Советская энциклопедическая, 1979.

## ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА

*Shodmonxonova Feruzaxon Kamolxon qizi  
Toshkent shahri Mustaqillik Shoh ko'chasi  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
Xalqaro huquq fakulteti 1-Kurs talabasi*

**Аннотация.** В этой статье рассматривается ключевая роль, которую играют главные принципы в формировании и толковании международного права. Термин "принцип" относится к ведущим или основополагающим принципам, которые лежат в основе глобальной правовой системы. Посредством всестороннего анализа литературы в этой статье исследуется историческая эволюция главных принципов, рассматриваются различные методологии, используемые при их толковании, и критически оценивается их влияние на развитие международного права. Результаты подчеркивают динамичный характер основных принципов и их значительную роль в эволюции международного права. В разделе обсуждения рассматриваются проблемы и возможности, связанные с основными принципами, и предлагается понимание их последствий для будущего глобального управления.

**Ключевые слова:** Международное право, основные принципы, правовые принципы, глобальное управление, толкование, методология, правовая база, историческая эволюция, анализ литературы, вызовы, возможности.

Международное право, как сложная и развивающаяся область, опирается на набор основополагающих принципов, известных как основные принципы. Эти принципы служат основой для разработки, толкования и применения законов, регулирующих взаимодействие между суверенными государствами. В этой статье предпринята попытка исследовать историческую эволюцию главных принципов, критически проанализировать литературу, связанную с ними, и оценить методологии, используемые при их интерпретации. Понимая сложную сеть принципов, составляющих ядро международного права, мы можем получить ценное представление о динамике глобального управления.

Всесторонний обзор существующей литературы обеспечивает детальное понимание основных принципов и их исторического развития. От вестфальской системы до современных сложностей транснациональных проблем ученые изучили основополагающие принципы, которые определяют поведение государств и их взаимодействие. Анализ литературы критически оценивает вклад теоретиков права и ученых в формирование основных принципов, проливая свет на эволюцию этих принципов с течением времени.

В этой статье используется качественная исследовательская методология, в первую очередь опирающаяся на тщательный обзор литературы для изучения основных принципов международного права. Обобщая идеи ученых-юристов, исторические документы и ключевые международно-правовые документы, исследование направлено на создание всеобъемлющего описания основных принципов и их влияния на глобальный правовой ландшафт.

Международное право представляет собой систему норм и принципов, регулирующих отношения между государствами и другими международными субъектами. Основные принципы международного права включают:

Принцип суверенного равенства государств:

- Все государства считаются суверенными и равными перед международным правом.

- Ни одно государство не имеет права вмешиваться во внутренние дела другого государства без его согласия.

Запрещение угрозы силой и использования силы:

- Государства обязаны воздерживаться от угрозы силой и использования силы в международных отношениях.

- Военные действия допускаются только в случае самообороны или при санкции Совета Безопасности ООН.

Мирное разрешение споров:

- Государства должны стремиться к мирному разрешению своих споров.

- Основные методы включают переговоры, посредничество, арбитраж и судебное разбирательство.

Добросовестное соблюдение обязательств:

- Государства обязаны добросовестно исполнять свои международные обязательства, вытекающие из договоров и общепризнанных принципов международного права.

Принцип самоопределения народов:

- Народы имеют право на свободное определение своего политического статуса, свободу развивать свою экономику и социокультурную сферу.

Принцип сотрудничества:

- Государства должны сотрудничать друг с другом в духе взаимности и взаимовыгоды, направленного на достижение общих целей благосостояния и мира.

Невмешательство во внутренние дела:

- Государства должны воздерживаться от вмешательства во внутренние дела других государств.

Обязательность договоров:



- Договоры, заключенные между государствами, обязательны для сторон и должны соблюдаться.

Эти принципы представляют собой основу международного права и направлены на поддержание стабильности и справедливости в мировом сообществе. Однако, следует отметить, что международное право также развивается, а его применение может быть сложным в некоторых ситуациях.

В разделе "Обсуждение" критически рассматриваются проблемы и возможности, связанные с деятельностью главного принцепса. В нем исследуются противоречия между государственным суверенитетом и международным сотрудничеством, оценивается эффективность существующих правовых рамок и рассматривается роль главного принцепса в решении насущных глобальных проблем. Обсуждение также подчеркивает необходимость тонкого и гибкого подхода к интерпретации этих принципов в условиях меняющейся геополитической динамики.

#### **Выводы и предложения:**

В заключение, основные принципы международного права играют решающую роль в формировании глобального правового порядка. Их историческая эволюция, методологии толкования и влияние на современные проблемы подчеркивают необходимость постоянного научного взаимодействия и диалога. Поскольку международное сообщество сталкивается со сложными вызовами, тонкое понимание основных принципов имеет важное значение для содействия эффективному глобальному управлению. Предложения для будущих исследований включают изучение новаторских подходов к интерпретации этих принципов и решению возникающих вопросов в международной правовой повестке дня.

#### **Литература.**

1. Abashidze A.N. (2017) Principles of international law: issues of conceptual and content nature. *Moskovskiy journal mezhdunarodnogo prava*=Moscow Journal of International Law, no. 4, pp. 19–30 (in Russ.)
2. Anufrieva L.P. (2021) Principles in modern international law (concept, nature, genesis, essence and content). *Moskovskii journal mezhdunarodnogo prava* Moscow Journal of International Law, no. 1, pp. 6–27 (in Russ.)
3. Brownlie I. (1990) Principles of public international law. Oxford: University Press, 800 p.
4. Chernichenko O.S. (2003) International aspects of state jurisdiction. Candidate of Juridical Sciences Summary. Moscow, 24 p. (in Russian)
5. Chernichenko S.V. (2014) Contours of international law. Moscow: Nauchnaya kniga, 592 p. (in Russ.)
6. International law (2007) V.I. Kuznecov, B.R. Tuzmuhamedov (eds.). Moscow: Norma, 944 p. (in Russ.)

## O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXIGA OID ENG MUHIM MANBALAR

*Bozorov Shuxrat Azamiddinovich*  
*Shahrisabz pedagogika instituti*  
*1-kurs magistranti*

**Abstract:** This article contains information about the ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people and information about the most important sources.

**Key words:** Ethnogenesis, ethnic history, archaeological remains, historical records, ethnographic, archaeological, anthropological and linguistic sources.

**Аннотация:** В данной статье собраны сведения об этногенезе и этнической истории узбекского народа, а также сведения о важнейших источниках.

**Ключевые слова:** Этногенез, этническая история, археологические находки, исторические записи, этнографические, археологические, антропологические и лингвистические источники.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid ma'lumotlar va eng muhim manbalar haqida ma'lumotlar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** Etnogenez, etnik tarix, arxeologik qoldiqlar, tarixiy yozuvlar, etnografik, arxeologik, antropologik va tilshunoslik manbalar.

**Kirish. (Introduction)** Dunyoda mavjud bo'lgan xalqlarning barchasi etnik guruxlarning qo'shilishidan vujudga kelgan. Boshqacha qilib aytganda dunyoda tarkibiga o'zga etnik guruhlar qo'shilmagan bironta xalq bo'lmasa kerak.

Etnogenez (yunoncha ethnos - xalq va genesis - tug'ilishi, kelib chiqish; ingl. - ethnogenesis; nem. - Ethnogenese) — etnosning kelib chiqishidir. Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko'ra etnogenez deb ilgaridan mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos elatning vujudga kelishiga aytiladi. «Etnogenez» tushunchasini fanga ilk marotaba XX asrning 20-yillarida N.Ya.Marri tomonidan kiritilgan. Har bir xalqning tarixi uning etnogenez va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez va etnik tarix xalq tarixining ma'lum bosqichlarida vujudga kelib, ma'lum bir etnosning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayondir. Odatda biror bir xalqning etnogenezini, uning etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, u tarkib topgan hudud va uning davlatchiligi to'g'risida biror ilmiy tasavvur yaratish mumkin emas.<sup>1</sup>

O'zbek xalqining etnogeneziga oid muhim manbalar quyidagilardir:

<sup>1</sup> Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T. 2001

1. Arxeologik qoldiqlar: O'zbekiston bo'ylab ko'plab arxeologik joylar va qolganliklar mavjud, masalan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Farg'ona shaharlaridagi qolganliklarda O'zbek xalqining tarixiy orqali suygan asarlari, keramikasi, qadimiy eshiklari va boshqa qolganliklar topilgan.<sup>2</sup>

2. Tarixiy yozuvlar: O'zbekiston hududida ko'plab tarixiy yozmalar, madaniy meroslar, qo'shig'iyalar va xalq qahramonlari haqida asosli ma'lumotlar mavjud. Mazkur yozuvlar va ma'lumotlar O'zbek xalqining etnogenezigina oid muhim manbalardir.

O'zbek xalqining etnogenezinini o'rganish uchun etnografik, arxeologik, antropologik, tarixiy, tilshunoslik va mifologik manbalardan foydalanish mumkin. Bu manbalardan quyidagilar kiritiladi:

- Etnografik manbalarga misol sifatida O'zbekiston bo'ylab bo'lgan respublikalarning davlat arxivlari, do'ktorlik, ilmiy maqolalar, o'zbekiston etnografik muzeumlari va kutubxonalarining ma'lumotlari kiritiladi. O'zbek xalqining jismoniy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy munosabatlari to'grisida ma'lumot olish mumkin.

- Arxeologik manbalar ilovasiga orqali, O'zbekiston hududidagi arxeologik ko'chalar va joylar ma'lum bo'lgan kelajak o'stiriladigan qadimiy qasrlar, majollar va qilichlar, antropologik holatlar va qadimgi temir, bronza va tun buriladigan ma'lumotlar kiritiladi.

- Antropologik manbalar tilidagi antropologik texnikumlar, axborot maktablarida olib boriladigan antropologik fanlar mavjud. Etnik tarkib, jismoniy xususiyatlar, xarakterning moddiy, ruhiy, jismoniy va psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlarni olish mumkin.

- Tilshunoslik manbalar tarixiy qoidalarni, ma'naviy qadr-tarbiyalarni, adabiyotlarni, og'zaki meros va mifologik adabiyotlarni o'z ichiga olgan manbalardir. Bu manbalar ko'plab xalq qo'shnolarini, bedilga, g'azalga, qo'shma-qo'shni ilmiy bilimlarni o'rganish uchun kerak bo'ladi.<sup>3</sup>

O'zbek xalqining etnik tarixiga oid eng muhim manbalar quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxivi: Davlat arxivi o'zbek xalqi va O'zbekistonning tarixi bilan bog'liq eng muhim ma'lumotlarni saqlaydi. Bu ma'lumotlar tarixi, etnografik, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalaridagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

2. O'zbekiston Milliy kutubxonasi: Bu kutubxona O'zbekistonning etnik tarixiga oid ko'plab asarlar va manbalar to'plamini saqlaydi. Bu asarlar orqali o'zbek xalqingizning tarixi, madaniyati, adabiyoti, fikriyatini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishingiz mumkin.

<sup>2</sup> Asqarov A., Axmedov B.A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 20.01, 1994.

<sup>3</sup> Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. (o'quv qo'llanma). – T., 2007.



3. O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Tarixi Instituti: Bu institut O'zbekiston xalqining tarixi, etnografik jamiyatining tarixi, madaniyati va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.<sup>4</sup>

Bu manbalar orqali o'zbek xalqingizning etnik tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar topishingiz mumkin.

O'zbek xalqining etnik tarixiga oid eng muhim manbalardan biri, uning lug'ati va adabiyotidir. O'zbek tilining tarixiy rivojlanishi, lug'at va adabiyoti orqali, milliyatiga oid identitetni belgilash uchun muhimdir. Bu manbalardan tashqari, arxeologik topilma va materiallar, tarixiy yodgorliklar, obidalar, va milodiy idishlar kabi qadimiy qoliplar ham tarixiy identitetni o'rganishda ahamiyatga ega. Bularning ko'pgina harakatlari, turkumning etnik ko'ngilochari va milodiy oid mavzularni tushunishga olib keladi.<sup>5</sup>

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Zamonaviy "Etnologiya"da ilmiy tahlil uchun turli-tuman materiallar: tadqiqotlar natijasi va etnograf olimlarning turli dala yozuvlari, sayohatchilarning safarnomalari, kuzatuvlari, folklor namunalari va badiiy matnlar, etnosotsiologik va etnopsixologik materiallar, publitsistik matnlar, rasmiy hujjatlar, tarixiy va ijtimoiysiyosiy adabiyotlardan foydalaniladi. Bulardan tashqari tadqiq etilayotgan etnos vakillari bilan bevosita muloqot jarayonida ularning turli holatlarga bildirgan ta'sirlari, bahs-munozaralar va suhbatlarda bildirgan fikr-mulohazalari va dalillarining mantiqliligi, tevarak - atrofdagi turli ko'rinishlarni izohlash yo'llari va shaxsiy xulq-atvorlarini kuzatuv natijalari ham muhim rol o'ynaydi. Shubhasiz, bunday ma'lumotlarni yig'ish tadqiqotchi uchun ma'lum metodlarni o'zlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy "Etnologiya"da o'ziga xos etnologik tadqiqot metodlari majmui shakllangan bo'lib, ularga dala tadqiqotlari, yozma manbalarni o'rganish, xalq og'zaki ijod namunalari to'plash statistik materiallar (avvalo turli davrlarda bajarilgan aholini ro'yxatga olish materiallari)ni tahlil qilish kiradi.<sup>6</sup>

Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. Tarixiy manba-deganda biz o'tmishdan qolgan xamda jamiyat xayotining ayrim boshichi yoki tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz. Tarixiy manbalar qatoriga qadimgi odamlarning manzilgoxlari, qadimgi shaharlar, qal'alar va ularning xarobalari, sug'orish inshootlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-ziynatlar, tangalar, qoyatosh sur'atlari, petrogliflar, yozma xujjatlar va boshqalar kiradi. Tarixiy manbalar insonlarning ijtimoiy faoliyati

---

<sup>4</sup> A.Asqarov mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya O'zIF jurnali T.: 1996

**5 Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R. "Etnomadaniyat".. T.: Adolat. 2003 y.**

<sup>6</sup> Ahmadali Asqarov "O'zbek xalqining etnik tarixi" Toshkent-2007.

davomida yaratiladi va o'tish xodisalarini o'zida aks ettiradi. Tarixiy manbalarning mavjudligi tarix fani rivojlanishining asosiy shartidir. Tarixiy manbalarsiz tarixni o'rganish mumkin emas.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Hozirgi zamon tarix fanida tarixiy manbalarni shartli ravishda quyidagi 7 asosiy guruhga bo'linadi.

1. **ASHYOVIIY MANBALAR.** Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgohlari, binolar, turli inshootlar, mehnat qurollari va turli buyumlar kiradi. Ashyoviy manbalarni qidirib topish va o'rganish bilan asosan arxeologiya fani shug'ullanadi.

2. **ETNOGRAFIK MANBALAR.** Xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, ma'naviy hayotini, sodir bo'lgan va bo'layotgan etnik jarayonlarni o'zida aks ettirgan materiallar etnografik manbalar guruhiga kiradi. Bu manbalarni ko'makchi tarix fanlari - "Etnologiya" fani o'rganadi. Etnografik manbalar ayrim hollarda uzoq o'tmishini qayta tiklashda g'oyat muhim rol o'ynaydi. Masalan, XIX asrda amerikalik etnograf olim L. Morgan Shimoliy Amerikada yashagan hindularning irokezlar qabilasi hayotini o'rganib, o'zining "Qadimgi jamiyat" nomli asarini yozdi. Uning bu asarini insoniyat tarixining ilk davri - ibtidoiy jamiyat tarixini tadqiq etishda yaqindan yordam berdi. Hozirgi kunda turli o'zbek urug'lariga mansub bo'lgan aholi guruhlarining jamlovi. Ularning etnik xususiyatlarini o'rganish tariximizning etnik sahifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>7</sup>

3. **FOL'KLOR MANBALAR.** Xalq uzoq asrlar davomida o'zi ortirgan tarixiy bilimlarni og'zaki ijod orqali avloddan-avlodga etkazib keldi. Turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki bu tomonlari o'z aksini topdi. Taniqli rus tarixchisi B. D. Grekov yozganidek, rivoyat va asotirlar - "bu xalqning o'zi so'zlab bergan tarixidir". O'rta Osiyo eng qadimgi xalqlarining ogzaki ijodiyoti namunalari bizgacha "Avesto" kitobi orqali, shuningdek antik tarixchilar hamda Tabariy, Narshaxiy, Beruniy va boshqalar asarlari orqali etib keldi. O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi qabila va elatlarning rivoyatu asotirlarlari ularning turmush tarzi va ma'naviy dunyosi haqida ma'lumot beradi. Qadimgi ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari to'grisida hikoya qiladi.<sup>8</sup> Bu rivoyat va ertaklarda malika To'maris, cho'pon Shiroq, bahodirlar Rustam va Siyovushlar obrazini yaratdi. Ularning Vatan ozodligi yo'lidagi fidokorona kurashlarini tarannum etdi. Xalq afsonalari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asarining

<sup>7</sup> Imomnazarov M. "Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari". T. 1996 y.

<sup>8</sup> B.A.Axmyedov. O'zbekiston tarixi manbalari.-T.: «O'qituvchi».2001.

syujetini tashkil etdi. O`rta asrlarda o`zbek xalqi ijod qilgan epik dostonlar, ertaklar va qo`shiqlar, maqol va topishmoqlar xalq tarixini, uning ruhiyati va ma`naviyati tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir. Lekin shuni ham ta`kidlab o`tish lozimki, folklor manbalari aniq tarixiy manba sifatida qabul qilinishi mumkin emas.<sup>9</sup>

4. LINGVISTIK MANBA. O`zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo`lgan va hozir ham mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qimmatli tarixiy materiallar qo`lga kiritilishi mumkin. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmunini aniqlash bilan lingvistika (tilshunoslik) fani shug`ullanadi. Bunday ma`lumotlar lingvistik manbalar deb ataladi. Masalan, "Buxoro" toponimi sanskrit tilidagi "vihara" so`zining o`zgargan varianti bo`lib, "ibodatgoh" degan ma`noni bildirilishi aniqlangan.

5. FOTOKINOHUJJATLAR. Fotograf hamda kino san`ati paydo bo`lgandan so`ng tarixiy manbalarning yangi bir guruhi vujudga keldi. Bunday manbalar fotohujjatlar deb ataladi. Toshkentdagi O`zbekiston Respublikasi Markaziy kinofotofonohujjatlar

6. FONOHUJJATLAR. Fonohujjatlar deganda biz grammafona plastinkalari hamda magnit tasmlarga yozib olingan nutqlar, suhbatlar, adabiyot va san`at asarlarini tushunamiz. O`zbekiston Markaziy kinofotofonohujjatlar Davlat arxivida qator shunday hujjatlar saqlanmoqda. SSSR va O`zbekiston SSR davlat va jamoat arboblari, fan adabiyot va san`at namoyondalari, ishlab chiqarish ijodkorlarining nutq va intervyulari, eski bolsheviklar, grajdanlar urushi va ikkinchi jahon urushi faxriylarining esdaliklari alohida o`rin tutadi.<sup>10</sup>

7. YOZMA MANBALAR. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O`rta Osiyoda miloddan avvalgi 1 mingyillikda dastlab oromiy yozuvlari, so`ngra asoslangan so`g`d, xorazm va baqtriya yozuvlari tarqaldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, So`g`d, Xorazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o`zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko`p asrlik tariximizni o`rganishda ulkan rol o`ynaydi. Yozma manbalar q`oyalarga, taxta va matolarga, pergament qog`ozlarga yozilgan bitiklardan iborat.<sup>11</sup>

#### **- Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Ushbu murakkab muammoning yechimiga aloqador fan tarmoqlari rivojlanib, uni kompleks o`rganishga o`tildi. Etnogenez va etnik tarix masalasi o`ta murakkab muammo bo`lib, u izlanuvchidan zo`r mas`uliyatni, tarixiy izchilik va ob`ektivlik tamoyillariga amal qilishni, muammo ilmiy yechimi yo`lida milliy ehtirolarga berilmaslikni qat`iy talab qiladi.

<sup>9</sup> Shoniyozov K "Ozbek xalqining shakillanish jarayoni" Toshkent-2001.

<sup>10</sup> Sa`dullayev A.S. Qadimgi O`zbekiston tarixi manbalardan.-T.: 1996.

<sup>11</sup> Ashirov A. Atadjanov Sh. «Etnologiya». T. 2007 y



- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytishim mumkinki, tarix – bizning kamchiliklarimizni, xatolarimizni togirlovchi dasturamoldir. Tarix – borligimiz, kelajagimizdir. Shunday ekan tarixsiz kelajakni tasavvur qilib bolmaydi. Tarixiy bilimlar orqali kelajakni barpo etamiz. Keling, aziz yoshlar vaqtimizni bekorchi narsaga sarflamasdan boy tariximizni organaylik, osib kelayotgan yosh avlodga biz kimlarning avlodi ekanligimizni ham yetkazaylik. Zero, ular faxr va gurur tuygusini his etib yashasin va ajdodlarga munosib avlod bolsin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shoniyozov K “Ozbek xalqining shakillanish jarayoni” Toshkent-2001.
2. Ahmadali Asqarov “O‘zbek xalqining etnik tarixi” Toshkent-2007.
3. Ashirov A. Atadjanov Sh. «Etnologiya». T. 2007 y
4. Sa’dullayev A.S. Qadimgi O‘zbekiston tarixi manbalardan.-T.: 1996.
5. B.A.Axmyedov. O‘zbekiston tarixi manbalari.-T.: «O‘qituvchi».2001
6. Imomnazarov M. “Milliy ma`naviyatimizning takomil bosqichlari”. T. 1996 y.
7. Murodov. M. Qorabaev U. Rustamova R . “Etnomadaniyat”.. T.: Adolat. 2003 y.
8. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. (o‘quv qo‘llanma). – T., 2007.
9. A.Asqarov mustaqillik yillarida tarix, arxeologiya va etnologiya O‘zIF jurnali T. : 1996
- 10 B.A.Axmyedov. O‘zbekiston tarixi manbalari.-T.: «O‘qituvchi».2001.

## O'RTA OSIYO XALQLARINING ETNONIMLARINI KELIB CHIQISHI

*Saparov Soxib Sobirovich*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** O'rta Osiyo xalqlarining etnonimlari chuqur tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, ko'pincha odamlarning ming yillar davomidagi murakkab va jadal harakatlarini aks ettiradi. Ushbu etnonimlarning kelib chiqishini tushunish Markaziy Osiyo tarixining boy joylari va mintaqani shakllantirgan turli guruhlar haqida qimmatli ma'lumot beradi. Ushbu maqolada o'rta osiyo xalqlarining etnonimlarini kelib chiqishi haqida ma'lumotlar berilgan va asosiy tushunchalar o'rganib chiqadi.

**Аннотация:** этнонимы народов Средней Азии имеют глубокое историческое и культурное значение и часто отражают сложные и интенсивные движения людей на протяжении тысячелетий. Понимание происхождения этих этнонимов дает ценную информацию о богатых местах истории Центральной Азии и различных группах, сформировавших регион. В данной статье даны сведения о происхождении этнонимов народов Средней Азии и рассмотрены основные понятия.

**Annotation:** ethnonyms of the peoples of Central Asia have deep historical and cultural significance, often reflecting the complex and intense movements of people over thousands of years. Understanding the origins of these ethnonyms provides valuable insight into the rich places of Central Asian history and the various groups that shaped the region. This article provides information on the origin of the ethnonyms of the peoples of Central Asia and examines the basic concepts.

**Kalit so'zlar:** markaziy osiyo, etnonimlar, tarix, o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman.

Markaziy Osiyo xalqlari etnonimlari mintaqaning uzoq va rang-barang madaniy merosini aks ettiruvchi boy va murakkab tarixga ega. Hududdagi turli etnik guruhlarini aniqlash va farqlash uchun ishlatiladigan bu nomlar asrlar davomida migratsiya, istilolar va qo'shni jamiyatlar bilan o'zaro munosabatlar ta'sirida shakllangan. Ushbu etnonimlarning kelib chiqishini tushunish mintaqani shakllantirgan tarixiy, lingvistik va ijtimoiy dinamika haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ko'pincha "sivilizatsiyalar chorrahasi" deb ataladigan Markaziy Osiyoda har biri o'ziga xos o'ziga xoslik va tilga ega bo'lgan juda ko'p xalqlar yashaydi. Mintaqaning etnonimlari bu xilma-xillikni aks ettiradi, ko'plab til va madaniy mansublikni o'z ichiga oladi. Bu atamalarning ko'pchiligi o'z kelib chiqishini qadimgi davrlarda, ya'ni O'rta Osiyoning keng

dashtlari, cho'llari va tog' tizmalarida ko'chmanchi qabilalar va o'troq jamoalar birga yashab, o'zaro aloqada bo'lgan davrlarga borib taqaladi.

O'rta Osiyoning eng qadimgi qayd etilgan etnonimlarini qadimgi tarixchilar va sayohatchilarning asarlarida uchratish mumkin. Gerodot va Strabon kabi yunon va rim manbalarida mintaqada yashovchi turli ko'chmanchi xalqlar tilga olinib, turli guruhlarni bildirish uchun skiflar, sarmatlar va massagetlar kabi nomlardan foydalanilgan. Klassik antic davrda ildiz otgan bu etnonimlar qadimgi davrlardagi Markaziy Osiyoning turli etnik landshaftlari haqida qimmatli tasavvurlarni taqdim etadi. Asrlar o'tishi bilan Markaziy Osiyo ko'plab imperiyalar va sivilizatsiyalarning yuksalishi va qulashiga guvoh bo'ldi, ularning har biri mintaqada etnonimlarida o'z izini qoldirdi. Iskandar Zulqarnaynning istilolari, Fors imperiyasining kengayishi, hunlar va mo'g'ullarning bosqinchiliklari O'rta Osiyoda etnik o'ziga xosliklarning aralashib ketishi va qayta konfiguratsiyasiga yordam berdi. Qadimgi etnonimlar noma'lum bo'lib, mintaqaning doimiy o'zgaruvchan siyosiy va madaniy dinamikasini aks ettirgan holda yangi etnonimlar paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda islom dinining tarqalishi mintaqada etnonimlariga yanada ta'sir ko'rsatdi. Arab geograflari va tarixchilari O'rta Osiyo xalqlarining xilma-xilligini hujjatlashtirib, o'zlari duch kelgan turli etnik guruhlarni arab yozuvidagi nomlardan foydalanganlar. Ko'pincha mahalliy tilshunoslik atamalariga asoslangan bu etnonimik murojaatlar O'rta Osiyoning islom davridagi til va madaniy xilma-xilligi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda kuchli turkey va fors davlatlari vujudga keldi, natijada turkey va fors tillari mintaqada keng tarqaldi. Natijada O'rta Osiyoning ko'pgina etnonimlari turkey yoki forsiy ildizlarga ega bo'lib, bu imperiyalarning til va madaniy merosini aks ettiradi. O'zbeklar, tojiklar, qozoqlar va qirg'izlar kabi nomlarning etimologik kelib chiqishi turkey yoki fors tillarida bo'lib, bu til an'analari mintaqada etnonimlariga doimiy ta'sirini ta'kidlaydi. XIX—XX-asrlarda Yevropa davlatlari bilan mustamlakachilarning to'qnashuvlari O'rta Osiyo etnonimlariga ham ta'sir ko'rsatdi. G'arb tadqiqotchilari va ma'murlari mintaqadagi turli xalqlar uchun ko'pincha til, diniy yoki geografik mezonlarga asoslangan yangi tasnif va toifalarni joriy qildilar. Bu tashqi qarashlar Markaziy Osiyo etnonimlari haqidagi zamonaviy tushunchani shakllantirish bilan birga, mintaqada etnik o'ziga xosligining murakkab va ko'p qirraliligini ham ta'kidlaydi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo etnonimlari geosiyosiy o'zgarishlar, urbanizatsiya va globallashuv ta'sirida rivojlanishda davom etmoqda. Sovet Ittifoqining parchalanishi, mustaqil O'rta Osiyo davlatlarining paydo bo'lishi, dunyo bo'ylab tarqalib ketgan diasporik jamoalar mintaqada yangi etnonimik o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Markaziy Osiyo zamonaviy dunyoning murakkabliklari bo'ylab harakatlanar ekan, uning etnik o'ziga xosligi va etnonimlari dinamik bo'lib qolmoqda va doimiy o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari bugungi kunda



ma'lum bo'lgan nomlar ko'pincha uzoq va murakkab evolyutsiya jarayoni, til, tarixiy va madaniy elementlarning uyg'unlashuvi natijasidir. Mintaqa son-sanoqsiz sivilizatsiyalar va ko'chmanchi qabilalar chorrahasi bo'lib, ularning har biri buyerlarda yashovchi xalqlarning umumiy o'ziga xosligida o'z izini qoldirgan. O'rta Osiyo bilan bog'liq bo'lgan eng qadimgi etnonimlardan biri "so'g'diy" atamasi bo'lib, u mintaqada miloddan avvalgi VI asrda nmilodiy XI asrgacha gullab-yashnagan qadimgi So'g'diyona podsholigidan kelib chiqqan. So'g'dlar o'zlarining jonli savdo tarmoqlari va o'ziga xos madaniyati bilan mashhur bo'lgan va ularning ta'siri mintaqaning arixiy rivoyatlarida yaqqol ko'rinadi.

"O'zbek" nomi o'zining kelib chiqishini XV asrdan boshlab mintaqaga ko'chib kelgan ko'chmanchi qabilalar bilan bog'liq bo'lib, pirovardida qudratli Buxoro xonligini barpo etgan. Vaqt o'tishi bilan bu qabilalar tub aholi bilan assimilyatsiya qilinib, hozirgi o'zbek etnik guruhi vujudga kelgan. "O'zbek" atamasi mintaqaning til merosini aks ettiruvchi turkey ildizlarga ega deb hisoblanadi. Xuddi shunday, qozoq va qirg'izlarning etnonimlari ham turkey xalqlarning ko'chishlari merosi va ko'chmanchi turmush tarzidan kelib chiqqan. "Qozoq" nomi turkiy "kaz" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "adab yurmoq" yoki "sayrmoq" ma'nosini bildiradi, bu qozoq xalqining Markaziy Osiyoning keng dashtlari bo'ylab tarixiy harakatchanligini aks ettiradi. Ayni paytda, "qirg'iz" nomi ham "qirq", "qabila" yoki "mustaqil" bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan mashhur qirg'iz qabilasining qadimgi turkey atamasidan kelib chiqqan deb ishoniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo etnonimlari static birlik emas, balki migratsiya, istilo va madaniy almashinuv kabi tarixiy jarayonlarning dinamikasidir. Mintaqa xalqlari qo'shni guruhlar bilan o'zaro munosabatda bo'lganida ko'pincha turli nomlarni qabul qilib, moslashtirib, bugungi kungacha rivojlanishda davom etayotgan etnik o'ziga xosliklarning murakkab tarmog'ini yaratgan. Markaziy Osiyoda etniklik tushunchasi mintaqaning rang-barangligiga hissa qo'shadigan turli til va madaniy guruhlar mavjudligi bilan yanada murakkablashadi. Masalan, nomi forscha "Toj" so'zidan olingan bo'lib, "toj" yoki "podshohlik" degan ma'noni anglatuvchi tojiklar tarixda mintaqaning forszabon aholisi bilan bog'langan. Bu ti va madaniy meros ularni Markaziy Osiyodagi boshqa etnik guruhlardan ajratib turadi.

